

TO‘Y MAROSIM NOMLARINING ETNOGRAFIK ASOSLARI VA  
ULARNING LUG‘AVIY MA‘NOLARI

*Azimova Yulduz Baxtiyor qizi*

*@azimovayulduz.mail*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada to‘y marosim nomlari, ularning turlari hamda lingvomadaniy xususiyatlari va tutgan o‘rni yoritilgan. To‘y marosim nomlarining o‘ziga xususiyatlari haqida ham batafsil ma‘lumot berilgan. Bundan tashqari, nikoh to‘yi va nikoh to‘yi harakatlari natijasi o‘laroq, marosim nomlari ham sanab o‘tiladi. Aytish joizki, to‘y marosim nomlari va ularning lingvomadaniy xususiyatlari gar bir xaqning madaniy holatidan kelib chiqqan holda belgilanib, ularning nomlarida ham o‘ziga xos jihatlar mavjud. To‘y marosim nomlarining qaysi hududga mosligi geografik joylashuv nuqtayi nazaridan ushbu maqolada izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** lingvokulturologiya, etnografizmlar, to‘y, marosim, nikoh, aqiqa, beshik to‘y, sunnat to‘y, milliy madaniyat, qadriyat, an‘ana.

To‘y marosim nomlari etnografik asosi va ma‘nosiga ko‘ra ma‘lum lug‘aviy-ma‘noviy guruhlariga bo‘linadi. Olib borilgan tahlillar o‘rganilayotgan hududdagi to‘y-marosim etnografizmlarini “Oilaviy to‘y-marosimlar”, “Ijtimoiy to‘y marosimlar”, “To‘y-marosimlarga oid nomlar” tarzida guruhlariga ajratib tasnif qilish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Tilshunos N.Qurbonazarova o‘zining “Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tadqiqi va lingvomadaniy tadqiqi” deb nomlangan dissertatsiyasida quyidagilarni bildirib o‘tadi: “Bugungi kungacha tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan ikki va ko‘p tilli lug‘atlar, shuningdek, izohli, etimologik va terminologik lug‘atlarning yuzaga kelganligi, o‘zbek tili shevalarining leksik, morfologik va fonetik xususiyatlarining atroflicha o‘rganilganligi, o‘zbek xalq shevalariga oid etnografik-dialektal leksikaning areal-hududiy xususiyatlarini mukammal talqin etib, ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tahlil qilishga asosdir. Chunki, dialektal leksika tarkibida xalq, urug‘ va qabilalarning turmush tarzi ko‘rinishlarini ifodalovchi etnografik leksikaning o‘ziga xos o‘rni, mavqei, mohiyati va shu bilan birga ijtimoiy, tahlimiy-tarbiyaviy, ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati ham bor. Etnografik leksika kattta hajmdagi leksik birliklarni o‘zida jamlagan bo‘lib, faqat uning bir bo‘lagi – to‘y marosimlari etnografizmlari hisoblanadi”.

O‘zbek xalqiga, uning urug‘ va qabilalarining turmush tarzi, yashash sharoiti hamda faoliyatiga xos holda shakllangan to‘ylarning marosim(urf-odat, udum) hamda an‘analarini ifodalovchi nomlar xalq tilida qadimdan mohiyati o‘zgarmagan holda turli shakl va sharoitlarda qo‘llanilib kelayotgani uchun ham xalqning betakror oltin bitigi

bo‘lgan sheva so‘zlari, ya’ni dialektizmlar jumlasiga kiradi<sup>1</sup>.

To‘y har bir xalq madaniyatida o‘ziga xos tarzda nishonlanadi va turli xalqlar tomonidan bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan urf-odatlar, ramzlar va so‘zlar orqali ifoda etiladi. Bu esa bir til yoki madaniyat egasining boshqa bir til yoki madaniyat egasiga bildirmoqchi bo‘lgan fikrini, keltirmoqchi bo‘lgan ta’rifini tushuntirishda murakkablik, noqulaylik tug‘diradi.

Misol uchun, “Uloq” – echking bolasi. Chet tillarga tarjima qilinganda “kichkina echki” ma’nosida tarjima qilinadi va o‘z ma’nosida kelganda lingvokulturologik birlik ya’ni marosim nomi bo‘la olmaydi. Lingvomadaniy birlik sifatida talqin qilsak, bu leksema qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan vo‘ha hududlarida har qanday vaziyatda ham to‘y belgisidir. Jumladan, “Kuyov uloq” kuyov jo‘ralarga kelinning uyiga to‘y jo‘natishdan oldin beriladi yoki so‘yib ziyofat qilib beriladi. Shu bois aynan kuyov leksemasi bilan bog‘langan.

To‘y bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat, an’nalarni 3 guruhga ajratsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchi guruhni to‘ygacha bo‘lgan marosim nomlari, etnografiyasi, semantikasiga bag‘ishlasak, ikkinchi guruhga to‘y marosimi kunida bo‘lib o‘tadigan urf-odat an’analar nomlarini kiritamiz. Uchinchi guruhga esa to‘ydan keyin o‘tkaziladigan marosim nomlarini jamlaymiz. O‘zbekistonimiz hududida barcha to‘ylar, to‘y oldi marosimlar, urf-odat, an’analar bilan boshlanadi.

Bu lug‘aviy birliklar semantik jihatidan nikoh to‘yi munosabati bilan bog‘liq urf-odatlarini ifodalaydi. Ularning ba’zilari bugungi kun nuqtai nazaridan eskirgan urf-odatlar sirasiga ham kirishi mumkin. Ammo ba’zilari bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda.

Biz yuqoridagi to‘y marosim etnografizmlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni o‘rganib chiqish natijasida, to‘y bilan bog‘liq bo‘lgan marosim nomlarini quyidagicha chegaralashimiz mumkin degan xulosaga keldik:

1. Inson tug‘ilguniga qadar bo‘lgan davr (ona qornidalik paytida o‘tkaziladigan marosim nomlari).
2. Inson tug‘ilganidan keyingi 40 kunlik chilla davrida o‘tkaziladigan marosim nomlari.
3. Insonning yoshga to‘lganidan 18-19 yoshlariga qadar nishonlanadigan marosim nomlari.
4. 20-40 yosh chegarasidagi marosim nomlari.

Yuqoridagi yosh doirasida chegaralangan marosim nomlarini o‘rganish bilan birga, ular nima sababdan shu nom bilan atalgan, lingvomadaniy xususiyati nimada ekanligini ham birma-bir ko‘rib chiqamiz.

<sup>1</sup> Откупшиков Ю.В. Дialeктивный материал и этимологии. Международный симпозиум по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. -М., Наука, 1984. С. 38-39.

1. Inson tug‘ilguniga qadar bo‘lgan davr - ona qornidalik paytida o‘tkaziladigan marosim nomlari:

**Belquda** – bu marosimda farzandlar hali ona qornida ekanliklaridayoq bir-birlari bilan unashtirilib qo‘yiladi. Belquda deb nomlanishi sababi ham shunda aslida.

**Momoshi** – bu marosim aslida “**momo oshi**” ya’ni momolarga atab qilinadigan osh hisoblanadi. Ushbu an’ana Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida saqlangan va bugungi kunga qadar o‘tkazilib kelinadi. Ushbu marosim homilador kelini, qizi bor kishilar tomonidan homila uch, yetti, to‘qqiz oyligida o‘tkaziladi. Kelinning homiladorlik davri yaxshi o‘tishi, tug‘ilajak chaqaloqning eson-omon dunyoga kelishini tilib, yoshi katta, otinoyi momo(buvi)lardan 4-5 tasi mehmonga chaqiriladi. Ularga atab osh damlanadi, dasturxon tuzaladi va sarposurug‘lar qo‘yiladi.

2. Inson tug‘ilganidan keyingi 40 kunlik chilla davrida o‘tkaziladigan marosim nomlari:

Ajdodlarimiz tomonidan amal qilinib kelingan bola tug‘ilishi va uning chilla davri bilan bog‘liq urf-odatlar ham O‘rta Osiyo xalqlari oilaviy-maishiy marosimlari davri eng qadimgi qatlamlardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda bu mavzuda olib borilgan tadqiqotlarda Xorazm, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida istiqomat qiluvchi aholi orasidan to‘plangan materiallar faktik asos vazifasini o‘tab kelmoqda.

Tavallud topgan bolaning qulog‘iga ota-bobolarimiz birinchi navbatda bir mulla chaqirib, azon aytirganlar. Azon aytilganda bolaning qulog‘i ochilgan. Odamlarni eshitish, tinglash qobiliyati shakllana boshlagan. Ismi ilk bor chaqaloqning o‘z qulog‘iga singdirilgan. So‘ng uning chillasi — kichik chilla va katta chilla o‘tkaziladi. Kichik chilla yigirma kungacha, bolaning onasi, enagasidan bo‘lak yoniga, chillalik bo‘lgani uchun hech kim kiritilmaydi. Katta chillasi, qirq kun o‘tganidan keyin bolani ko‘rishga kelganlar chaqaloq yoniga kiritilgan.

Chillaning ma’nosi shuki, belgilangan muayyan muddat davomida (kichigi 20 kun, kattasi 40 kun) xonadonga begona odam kiritilmaydi. Namozshomdan keyin hech kim ko‘chaga chiqmaydi, bemahalda ko‘chadan hovliga birov kirmaydi. Chillali joy desangiz, zarurmand, shoshilinch mehmon ham musulmon bo‘lsa, tushunadi. Chilla davrida chaqaloqning sochini olish, ilk bor tirnog‘ini olish, cho‘miltirish, kichik va katta chilla chiqdi marosimlari shular jumlasidandir.

Chaqaloqning birinchi marta sochini olishda ham muayyan irim-sirim va urf-odatlarga amal qilishgan. Bolaning “umr yo‘li oq bo‘lsin” degan niyatda chaqaloqning sochi olinadigan joyga oq rangli ro‘mol yoki mato to‘shalgan. Chaqaloqning sochini olishda esa g‘odakning bobosi bolaning bolaning sochiga qaychi urgan. Chaqaloqning olingan bir tutam sochi esa hovlidagi mevali daraxt tagiga ko‘milishi kerak bo‘lgan.

Ilk bor tirnog‘ini olish marosimida esa chaqaloq o‘g‘il bola bo‘lsa otasining pul solingan cho‘ntagiga qo‘lini uch marta solib keyin tirnog‘ini olishadi.

Agar qiz bola bo‘lsa “pazanda”, “qo‘li shirin” bo‘lsin degan niyatda supra (undan tayyorlanadigan taomlar uchun matodan qilingan dasturxon) dagi unga botirib olinadi. Shundan so‘ng tirnog‘larini olish mumkin bo‘lgan.

Chaqaloq 20 kunlik bo‘lganda “kichik chilla chiqdi” deya xonadonda is (Bo‘g‘irsoq ya‘ni oddiy paxta yog‘ini isi, hidi chiqquniga qadar qizdirilib, shu qizigan yog‘da bo‘laklarga bo‘lib qovurilgan xamir. Shu sababli “is” deb atalib kelingan.) qilib, tansiq taom tayyorlanadi.

Bolaning kindigi tushganidan so‘ng birinchi marta cho‘miltirganda ham yuqoridagidek “is qilish” marosimi o‘tkazilgan. Chaqaloqning kindigi tushib, cho‘miltirilgandan so‘ng go‘dak beshikka belangan.

Chaqaloq va uning onasi 40 kunlik chilla davridan eson-omon o‘tib olganliklari munosabati bilan navbatdagi marosim, ya‘ni **chillaguzaron, chilla qochdi, chilla quvdi** bo‘lib o‘tadi. 40kun davomida chilla saqlab uyida o‘tirgan kelin va bola chillasi chiqishi munosabati bilan quda tomonnikiga (kelinning ota-onasining uyi) mehmonga borishadi. U yerda katta bazm-u jamshid qilinadi va marosim so‘nggida chaqaloqqa bobosi va momosi (kelinning ota-onasi) nomidan qimmatbaho sovg‘a, sarpolar berib kuzatiladi.

3. Insonning yoshga to‘lganidan 18-19 yoshlariga qadar nishonlanadigan marosim nomlari:

**Beshikkerti** – yoshligida unashtirib qo‘yish. Qiz farzand tug‘ilganda uni biror-bir qarindosh, yoki tanish kishining farzandiga (o‘g‘liga) atab qo‘yish. Ya‘ni kelajakda kelin qilish uchun tanlab qo‘yish. Avvalgi vaqtlarda bu marosimga jiddiy qaralgan va atalgan qiz, albatta, atab qo‘yilgan yigitiga turmushga chiqishga majbur bo‘lgan. Bugungi kunda bu marosim voha hududlarimizning ba‘zi bir chekka tumanlarida saqlangan xolos.

O‘zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo‘yi o‘zbeklar millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an‘analarining uyg‘unlashuvdagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o‘ta o‘ziga xos, yorqin va turli-tuman bo‘lib, urug‘chilik davri munosabatlaridan kelib chiqqan degan taxminlar ham mavjud. Urf-odatlarining ko‘pchiligi oilaviy hayotga oid bo‘lib, bolaning tug‘ilishi va tarbiyasi (beshik to‘yi, xatna qilish), nikoh (fotiha toyi, toy) bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pincha ular islom urf-odatlarining amaliyoti bilan bogliq bolgan shakllarda namoyon bo‘ladi.

**Aqiqa marosimi**- bola tug‘ilgandan keyin o‘tkaziladigan marosimlardan biri. Bolaning oilasi tomonidan o‘tkaziladigan aqiqa an‘anaviy urf-odatlarni o‘z ichiga oladi va yangi tug‘ilgan chaqaloqni kutib olishda muhim bayram singari nishonlangan. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning qulog‘iga azon aytilishi ham bejizga emas. Chunki

chaqaloqning birinchi eshitadigan kalomi Alloh bo‘ladi. Alloh kalimasini eshitgan chaqaloq agar ota-onasi islomiy tarbiya bersa, inshaalloh umr bo‘yi yo‘ldan adashmaydi. Odatda aynan azon aytirilgan kuni chaqaloq uchun aqiqa ham o‘tkaziladi. Bu amal ham farzand kamolotiga katta hissa qo‘shadi. Chilla ham ahamiyatli narsa bo‘lib, odatda chaqaloqlar ma’sum bo‘ladilar. Ma’sum, gunohsiz insonlarga shayton va kofir jinlar doim hujumda bo‘ladilar. Ushbu marosim boshqa ko‘plab davlatlarda ham mavjud, ammo o‘zga madaniyatlarda bolaning tug‘ilishidan oldin o‘tkaziladi.

Biroq, ko‘pchilik musulmonlar orasida, bola tug‘ilishidan oldin, bayramni nishonlash oqilona emas. Aqiqa marosimi ota-onalar uchun shukr qilish va sog‘lom bolaning barokatlari uchun Allohga hamd-u sano aytishning bir usuli hisoblanadi.

Aqiqa an’anaviy ravishda bola tug‘ilgandan keyin yettinchi kuni o‘tkaziladi. Hozirgi kunga kelib esa chaqaloq tug‘ilganidan keyin 7, 14 yoki 21-kunlarida ham nishonlanmoqda. Bolaning tug‘ilgan keyingi vaqtlar mobaynida xarajatlarni qoplay olmasa, balog‘at yoshiga yetgunga qadar amalga oshirilishi, hatto undan keyinga ham qoldirilishi mumkin. Qadimda ba’zi ulamolar aqiqa yoshligida unga atab aqiqa qilinmagan bo‘lsa, yoshi katta kishilarga ham o‘zlari uchun aqiqa qilishni maslahat berishgan.

Diniy ulamolarimiz - “Aqiqa qilmaslik uchun diniy oqibat, jazo yo‘qdir. Ammo bu "sunnat" an’anasi, majburiy o‘tkazish talab qilinmaydi”, deya ta’kidlashgan.

Aqiqa har doim yangi tug‘ilgan bolaning ota-onasi yoki oilasi tomonidan uyushtiriladi. Elga osh beradigan oila bitta yoki ikkita qo‘yni yoki echkini so‘yadi. Bu qurbonlik, Aqiyokuning muayyan qismidir. Qo‘y yoki echkilar eng ko‘p ishlatiladigan qurbonlik hayvonlar bo‘lsa-da, ayrim hududlarda sigirlar yoki tuyalar ham qurbonlik bo‘lishlari mumkin.

Qurbonlik so‘yish uchun aniq talablar ham belgilangan bo‘lib, hayvon sog‘lom va nuqsonsiz bo‘lishi kerak va so‘yish insoniylik bilan amalga oshirilishi kerak. Go’shtning uchdan bir qismi kambag‘allarga sadaqa sifatida beriladi, qolgani qarindoshlar, do‘stlar va qo‘shnilar uchun tayyorlanayotgan taomlarga solinadi. Ko‘plab mehmonlar yangi chaqaloq uchun kiyim-kechak, o‘yinchoqlar yoki chaqaloq mebellari kabi sovg‘alar olib kelishadi.

Aqiqaning asl mazmun- mohiyati shundan iboratki, yangi tug‘ilgan chaqaloqning sochini birinchi marta olinadi va uning og‘irligiga teng bo‘lgan oltin yoki kumushni kambag‘allarga sadaqa qilinadi. Bu vaqtda bola qulog‘iga azon o‘qilib ismi rasman e’lon qilinadi. Shu sababdan, aqiqa, ba’zan “**nom berish**” marosimi deb ataladi. “Aqiq” so‘zi arabchadan “so‘z” ma’nosini ifodalaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изохли луғати-Тошкент, 1991.
2. Жўрабоев А. Ўзбекистонда тўй-маросим номлари (Андижон группа шевалари материаллари асосида) филол. фан.ном...дисс. – Тошкент, 1971.
3. Хусайнова З. Ўзбек тилида тўй маросимлари атамаларининг ономасиологик тадқиқи (Бухоро шевалари материаллари асосида). Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1984.
4. Исмоилова О. Ўзбек тўй маросим фольклорида “Келин салом” жанри. Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.
5. Амонтурдиев Н.Р. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD). Т.: 2021.